

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

TO‘RABAYEVA ZIYODA YAKUBOVNA

**VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI JINOIY JAVOBGARLIK VA
JAZODAN OZOD QILISH INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

To‘rabayeva Ziyoda Yakubovna

Voyaga yetmagan shaxslarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish institutini takomillashtirish.....3

Турабаева Зиёда Якубовна

Совершенствование института освобождения от уголовной ответственности и наказания несовершеннолетних лиц.....25

Turabaeva Ziyoda Yakubovna

Improving the institution of exemption from criminal liability and punishment of minors.....50

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

TO‘RABAYEVA ZIYODA YAKUBOVNA

**VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI JINOIY JAVOBGARLIK VA
JAZODAN OZOD QILISH INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2020.4PhD/Yu444 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “ZiyoNET” ta’lim Axborot ta’lim tarmog‘ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Abdurasulova Qumrinisa Raimqulovna yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Suyunova Dilbar Joldasbayevna yuridik fanlar doktori, professor Umirzakov Begzod Ataboevich yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 16-sentyabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: 99871-233-66-36; faks: 99871-233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1420 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35.Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 29-avgust kuni tarqatildi.

(2025-yil 29-avgustdagi 53-raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Otajonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

I.B.Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

D.B.Bazarova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc),
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda voyaga yetmagan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etishning oldini olish, ularni jazodan va javobgarlikdan ozod qilish, huquqiy ta'sir choralari qo'llash, voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. UNICEF bergan ma'lumotga ko'ra butun dunyo bo'yicha jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan bolalarning ko'rsatkichi har 100 000 kishiga 28 tani tashkil etadi¹. Xalqaro huquqda voyaga yetmaganlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilish uchun, avvalo, bola huquqlariga oid xalqaro va milliy qonunchilikka rioya etish, ozodlikdan mahrum qilish oxirgi chora sifatida eng qisqa muddatlarda qo'llanilishini ta'minlash, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar va boshqa majburlov choralari turlarini kengaytirish orqali ularning qayta jinoyat sodir etishining oldini olish uchun samarali mexanizmlar yaratishga e'tibor qaratilmoqda. Yuqoridagilar voyaga yetmagan shaxslarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish institutini takomillashtirish ustuvor vazifa ekanligidan dalolat bermoqda.

Jahonda voyaga yetmaganlarga nisbatan jazodan boshqa huquqiy ta'sir choralari qo'llash, jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirishning tashkiliy-huquqiy choralarni takomillashtirish yuzasidan ma'lum natijalarga erishilgan. Jumladan, voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilishning jinoyat-huquqiy jihatlarini tadqiq qilish, javobgarlik va jazodan ozod qilishga doir qonunchilikni takomillashtirish, jazodan boshqa huquqiy ta'sir choralari qo'llash orqali voyaga yetmaganning qayta jinoyat sodir etishining oldini olish, shuningdek bolalarning yuvenal odil sudlovdan foydalanishlariga doir xalqaro standartlarni takomillashtirish, jinoyat sodir qilgan voyaga yetmagan shaxslarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy jihatlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Shunga qaramasdan bugungi zamonaviy sharoitlar voyaga yetmaganlarni javobgarlik va jazodan ozod qilishning nazariy, amaliy va huquqiy muammolarini kompleks tarzda o'rganishni, bu sohada mavjud muammolarni aniqlashni va ularga yechim berishni hamda tartibga solishga doir qonun normalari va qonunni qo'llash amaliyotini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda voyaga yetmagan jinoyat sodir etgan shaxslarning huquqlarini amalga oshirish, ularni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishga oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi²da jinoyat qonunchiligi normalarini unifikatsiya qilish, jinoiy javobgarlik va jazo tizimini takomillashtirish hamda fuqarolar huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarining ta'sirchan va ishonchli muhofaza qilinishini ta'minlash jinoyat qonunchiligini

¹ Globally, an estimated 259,000 children were in detention in 2024 / <https://data.unicef.org/topic/child-protection/justice-for-children/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018-y., 07/18/3723/1225-son, 01.10.2018-y., 06/18/5547/1975-son

takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari va vazifalari etib belgilangan. Ushbu vazifalar jinoyat qonunining voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jazo tayinlash, jazodan va javobgarlikdan ozod qilish, jazodan boshqa majburlov choralari turlarini kengaytirish hamda qonunni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish masalalarini tadqiq etishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi O‘RQ-703-son “Sudlar to‘g‘risida”, 2024-yil 7-avgustdagi O‘RQ-938-son “Probatsiya to‘g‘risida”, 2016-yil 14-sentyabrdagi O‘RQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”, 2019-yil 2-apreldagi O‘RQ-532-son “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma‘muriy nazorat to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 15-maydagi PQ-3723-son “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon va qarorlari hamda mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini muayyan darajada ta‘minlashga mazkur dissertatsiya tadqiqoti xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda voyaga yetmagan shaxslarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishning ayrim jihatlari M. Usmonaliyev, M.X. Rustambayev, Q.R. Abdurasulova, R. Kabulov, A.A. Otajonov, N.S. Salayev, Sh. Berdiyev, D.R. Qurbonov, N.T. Ismoilov, D.X. Usmonov, U.Sh. Xoliqulov, E.O. Turg‘unboyev, F.L. Miruktamova, Sh.G. Niyozova, M.R. Shaymerden o‘g‘li, Q.Y. Rozimova va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Jumladan, U.Sh. Xoliqulov voyaga yetmagan shaxslarga jazo tayinlash, E.O. Turg‘unboyev jazodan ozod qilish tushunchasi, turlari va belgilarini, D.R. Qurbonov jinoiy javobgarlikni qo‘llash muammolarini, G‘.K. Botirov jinoyat qonunchiligini liberallashtirishning asosi sifatida insonparvarlik prinsipining amalga oshirilishini, F.L.Miruktamova voyaga yetmaganlar odil sudlovining xalqaro standartlarini o‘rganganlar.

Xorijlik olimlardan voyaga yetmaganlarni jazodan ozod qilishning jinoyat-huquqiy jihatlari o‘rganish masalalariga A.I. Rarog, A.I. Chuchayev, Y.M. Antonyan, Y.M. Nizamitdinova, O.V. Jdanova, S.G. Barsukova, I.I. Yevtushenko va boshqa olimlar o‘z ilmiy ishlarini bag‘ishlaganlar. Jinoiy javobgarlik va jazodan ozod etish institutiga oid ilmiy qarashlar J. Pradel, M.N. Gernet, A. Hoche, Mark P. Mostert, B. Gert kabi olimlar va mutaxassislar tomonidan o‘rganilgan¹.

¹ Ushbu olimlar asarlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

Biroq respublikamizda voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishning jinoiyat-huquqiy jihatlari dissertatsiya darajasida tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining "O'zbekiston Respublikasining Jinoiyat kodeksi va uni qo'llashni takomillashtirish muammolari", "Sud-huquq tizimini takomillashtirish va jinoiyat qonunchiligini liberallashtirish kontekstida jazo tizimini islohot qilish muammolari" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish institutiga oid jinoiyat qonunchiligi normalarini takomillashtirish va mazkur sohada sud amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

jinoiyat huquqida voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish tushunchasi, tizimi, ijtimoiy-huquqiy mohiyatini ochib berish;

voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishni nazarda tutuvchi jinoiyat qonunchiligi normalarining rivojlanish tarixini o'rganish;

voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish turlari va ularning jinoiyat-huquqiy tabiatini nazariy-huquqiy jihatdan tahlil qilish;

voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishning nazariy-huquqiy muammolarini o'rganish;

voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishning amaliy muammolarini tahlil etish;

ayrim xorijiy davlatlar jinoiyat qonunchiligining voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishga oid normalarini qiyosiy tahlil qilish;

jinoiyat qonunchiligini isloh qilish sharoitida voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish institutini takomillashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish;

voyaga yetmaganlarga oid jinoiyat qonunchiligi normalarini takomillashtirish va qonunni qo'llash amaliyotini yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning obyekti sifatida voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik va jinoiy jazodan ozod qilish bilan bog'liq jinoiyat-huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqotning predmeti voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik va jinoiy jazodan ozod qilish bilan bog'liq masalalarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, qonunni qo'llash amaliyoti, amaldagi qonunchilik va xorijiy mamlakatlar qonunchilik hujjatlari, shuningdek jinoiyat-huquqiy fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari tadqiqot ishini yozishda umum ilmiy uslublar: funksional yondashuv, mantiqiylik, tizimlilik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, statistik, sotsiologik so'rovlar o'tkazish kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoiyatni sodir qilgan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoiyatni birinchi marta sodir qilgan voyaga yetmagan shaxs, agar sodir

etgan qilmishining xususiyatlari, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlarini e'tiborga olib, uni jazo qo'llamasdan turib ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelinganligi sababli voyaga yetmagan shaxs javobgarlikdan ozod qilinib, ish bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiyada ko'rishga topshirilishi lozimligi asoslangan;

og'ir jinoyatni birinchi marta sodir qilgan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni takroran sodir etgan voyaga yetmagan shaxs qilmishning xususiyati, aybdorning shaxsiga oid holat inobatga olinishi zarurati mavjudligi sababli sud jazodan ozod qilish va unga nisbatan majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shartligi asoslangan;

voyaga yetmagan shaxslarni javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish asoslarini kengaytirish zarurati mavjudligi sababli "o'quv muassasasiga muntazam qatnash majburiyati", "muayyan rehabilitatsiya va maslahat dasturlariga qatnash", "muayyan joylarga bormaslik", "muayyan shaxslar bilan aloqa o'rnatmaslik", "muayyan buyumlarga ega bo'lmaslik yoki ularni o'zida saqlamaslik", "aloqa vositalaridan, shu jumladan Internetdan foydalanmaslik" kabi majburlov choralari turlarini joriy etish lozimligi asoslangan;

voyaga yetmaganlarga tayinlanadigan jinoiy jazolar muddati va miqdori nisbatan yengilligi sababli ularga jazo tayinlashda JK 57-moddasini umumiy asoslarda qo'llashga ehtiyoj mavjud bo'lmasligi, biroq JK Maxsus qism moddasida nazarda tutilmagan yengilroq jazo tayinlashda JK 57-moddasi qo'llanilishi istisno etilmasligi lozimligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

JK 89-moddaga jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishda, asoslar mavjud bo'lganda sud mahkumga nisbatan probatsiya choralari yuklashi mumkinligi bilan bog'liq taklif asoslangan;

jazoni yengilrog'i bilan almashtirish (JK 90-m.)da nafaqat ozodlikdan mahrum etilgan, ozodligi cheklangan yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga, balki majburiy jamoat ishlari jazosini ijro etayotgan shaxslarga nisbatan ham sud jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirishi mumkinligi to'g'risidagi qoidaning kiritilishi, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish vaqtida almashtirilayotgan jazoning qancha muddati yengilroq jazoning qancha muddatiga to'g'ri kelishi aniq belgilab qo'yilishi mazkur moddani qo'llashni yengillashtirishi asoslangan;

javobgarlikka tortish va jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan va jazodan ozod qilish JK 64 va 69-moddasida nazarda tutilgan muddatlar voyaga yetmagan davrda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan teng yarmiga qisqartirilishiga oid qoida JK 90¹-moddaga kiritish asoslangan;

rivojlanishda nuqsoni bo'lgan voyaga yetmagan shaxs atamasiga ta'rif ishlab chiqildi: rivojlanishda nuqsoni bo'lgan voyaga yetmagan shaxs – (rivojlanishda psixik-jismoniy kamchilikka ega, rivojlanishda orqada qolish, rivojlanishda muammoga ega, alohida yordamga muhtoj) sensor organlarining orttirilgan yoki tug'ma organik jarohatlanishi natijasida markaziy nerv sistemasi yoki harakat-tayanch apparati va psixik funksiyalarning me'yorda rivojlanishida kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar kirishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo'llash amaliyotiga asoslangan, bundan tashqari, xulosalar sotsiologik tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar va sud hukmlarining tahlili natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan, Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan 2024-yil 1-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga yuborilgan 7/2941-19-01-son xatga asosan 79 ta sud va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari o'rtasida anketa-so'rovnoma o'tkazilib, 172 ta sud hukm, ajrim va qarorlari tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudidan olingan statistik ma'lumotlardan umumlashtirilgan holda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mazkur tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan qoidalar jinoyat huquqi fani nazariyasining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ilmiy izlanishlar asosida ishlab chiqilgan xulosalardan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda, yuridik oliy o'quv yurtlarida Jinoyat huquqi fanidan dars o'tish hamda metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanilishi mumkin, shuningdek, ushbu tadqiqot jinoyat huquqida voyaga yetmaganlarni javobgarlik va jazoda ozod qilishga oid mavjud muammolarini hal etishda yaqindan yordam beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati voyaga yetmagan shaxslarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan bir qator qoida va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda ifodalangan bo'lib, tadqiqot natijalaridan jinoyat qonunini takomillashtirishda, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarini ishlab chiqish amaliyotida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Voyaga yetmagan shaxslarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish institutini tadqiq etish natijalari asosida:

JK 87-modda 1-qismiga muvofiq ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni sodir qilgan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir qilgan voyaga yetmagan shaxs, agar sodir etgan qilmishining xususiyatlari, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlarini e'tiborga olib, uni jazo qo'llamasdan turib ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelinsa, javobgarlikdan ozod qilinib, ish bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiyada ko'rishga topshirilishi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi asosida ishlab chiqilayotgan Jinoyat kodeksining yangi tahrirdagi loyihasida o'z aksini topgan. (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2022-yil 27-dekabrda 27/2-360-22-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan voyaga yetmagan shaxsni ham javobgarlikdan ozod qilishga xizmat qilgan;

JK 87-modda 2-qismiga muvofiq og'ir jinoyatni birinchi marta sodir qilgan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni takroran sodir etgan voyaga yetmagan shaxsni, mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lsa, sud jazodan ozod qilish va unga nisbatan majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shartligi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual

qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi asosida ishlab chiqilayotgan Jinoyat kodeksining yangi tahrirdagi loyihasida o'z aksini topgan. (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2022-yil 27-dekabrda 27/2-360-22-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif sudlarga og'ir jinoyatni birinchi marta sodir qilgan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni takroran sodir etgan voyaga yetmagan shaxsni jazodan ozod qilish imkonini berishga xizmat qilgan;

JK 88-moddadagi majburlov choralarini o'quv muassasasiga muntazam qatnash majburiyati; muayyan rehabilitatsiya va maslahat dasturlariga qatnash; muayyan joylarga bormaslik; muayyan shaxslar bilan aloqa o'rnatmaslik; muayyan buyumlarga ega bo'lmaslik yoki ularni o'zida saqlamaslik; aloqa vositalaridan, shu jumladan Internetdan foydalanmaslik turlarini kiritish, shuningdek bir vaqtning o'zida mazkur moddada nazarda tutilgan majburlov choralaridan biri yoki bir nechta qo'llanilishi mumkinligi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi asosida ishlab chiqilayotgan Jinoyat kodeksining yangi tahrirdagi loyihasida o'z aksini topgan. (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2022-yil 27-dekabrda 27/2-360-22-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif Pekin qoidalarining 17-moddasida belgilangan ko'rsatmalarga to'g'ri amal qilinishiga xizmat qilgan;

voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlayotganda JK 82-86-moddalari talablaridan kelib chiqish lozim bo'lib, bunda JK 57-moddasini qo'llash talab etilmasligi, voyaga yetmaganlarga tayinlanadigan jazolar yengil bo'lib, JK 57-moddasini umumiy asoslarda qo'llashga ehtiyoj qolmasligi, lekin maxsus qism moddasida nazarda tutilmagan yengilroq jazoni qo'llamoqchi bo'lsa, sudlar ushbu moddani qo'llashi bundan mustasno ekanligi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qarorning 10-bandida o'z aksini topgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 30-sentyabrda 23-03-718-24-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif voyaga yetmaganlarga nafaqat ozodlikdan mahrum qilish jazosi, balki boshqa jazo choralarini, ya'ni JK 82-86-moddalarni qo'llashda ham yengilroq jazo tayinlash qoidalarini to'g'ri qo'llashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, 6 ta ilmiy maqola (ulardan 4 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqot ishining **kirishi** (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)da tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish tushunchasi, ahamiyati, unga oid Jinoyat kodeksi normalarining rivojlanish tarixi”** nomli birinchi bobida voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish tushunchasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilingan, uning mazmuni, ahamiyati o‘rganilgan, mazkur institutning rivojlanish tarixi va bosqichlari yoritilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish tushunchasi, tizimi va ahamiyati”* deb nomlangan bo‘lib, unda javobgarlik va jazodan ozod qilishga doir ilmiy-nazariy qarashlar, mazkur institutning huquqiy tabiati va ahamiyati yoritilgan.

Ushbu bobda “jinoiy javobgarlik”, “jinoiy jazo” tushunchalari mazmuni, javobgarlik va jazodan ozod qilish, ularning turlari, ozod qilish asoslari milliy va xorijiy olimlarning fikrlari tahlil qilinib bir qancha mualliflik ta‘riflari berilgan.

Muallif voyaga yetmaganlarni javobgarlik va jazodan ozod qilishning zarurati va ahamiyatini bir qator bu mavzuda tadqiqot olib borgan milliy va xorijiy olimlardan M.Usmonaliyev, M.X.Rustambayev, Q.R.Abdurasulova, R. Kabulov, A.A. Otajonov, N.S. Salayev, Sh. Berdiyev, D.R.Qurbonov, N.T.Ismoilov, D.X.Usmonov, U.Sh. Xoliqulov, E.O. Turg‘unboyev, F.L.Miruktamova, Sh.G. Niyozova, M.R.Shaymerden o‘g‘li, Q.Y.Rozimova, A.Sherbakov, Y.Tkachevskiy, I.Tyurina, S.Babayan, Y.Kashuba, V.Terenteva, N.Krilova, R.Kario, F.Dunkel, K.Meadov, R.Kolonichenkovlarning ilmiy ishlarini tahlil qilib voyaga yetmagan shaxsni javobgarlik va jazodan ozod qilish tushunchasi, uning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib bergan.

Dissertantning fikricha, javobgarlikdan ozod qilish instituti jinoiy javobgarlikning o‘zi paydo bo‘lgan paytdan boshlab paydo bo‘ladi, jinoiy javobgarlik voyaga yetmagan shaxs jinoyat sodir etganida yuzaga keladi. Biroq, ayrim hollarda davlat jinoyat sodir etgan fuqaroni jinoyatchi deb tan olish huquqidan foydalanishni rad etadi va voyaga yetmagan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi. Jazodan ozod qilish mahkumning ahloqan tuzalganligi, mehnat va o‘qishga halol munosabatda bo‘layotganligi voyaga yetmaganga qo‘llangan jazodan ko‘zlangan maqsadga muddatidan oldin erishilganligini ko‘rsatib beradi. Bu esa sudga voyaga yetmaganni jazodan ozod qilish institutini qo‘llash majburiyatini vujudga keltiradi. Jazodan ozod qilish instituti mahkumlarga kelgusida jinoyat qilishiga to‘siq vazifasini o‘taydi.

Muallif tomonidan jinoiy javobgarlikdan ozod etishning ahamiyatini u shaxsda, xususan voyaga yetmagan shaxsda jinoyat-huquqiy majburlov choralari, ya'ni uni jazolash mumkinligini anglashiga, javobgarlikning muqarrarligini nafaqat his etish, balki undan qo'rqish, hayiqishga undaydi, natijada uning jinoyat sodir etishdan o'zini tiyib turishga sabab bo'lishi mumkinligi, JKdagi jinoiy javobgarlikdan ozod etish turlari rivojlangan davlatlar jinoyat qonunlaridagi normalarga hamohang bo'lib, mamlakatimiz qonunida uning turlari ayrim davlatlarga nisbatan ko'proq ekanligi, bu institutlar xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari, prinsiplari va andozalariga to'liq mos kelishi, jinoyat qonunlarida insonparvarlik prinsipining mustahkamlanishiga ko'maklashishi, eng muhimi, mazkur institut sud-tergov amaliyotida samarali qo'llanilayotganligini asoslagan.

O'z navbatida dissertant jinoiy javobgarlik huquqiy javobgarlikning eng qattiq turi bo'lib, u shaxs hayotining turli sohalariga aralashish, xatti-harakatlar variantlarini tanlashni, subyektning faoliyat doirasini cheklash imkoniyatini nazarda tutishi, ammo davlatning jinoyat sodir etgan shaxsga ta'siri nafaqat jazolash, balki tuzatuvchi va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi, mas'uliyatni amalga oshirish muayyan turdagi harakatni bajarish yoki ularni bajarishdan voz kechishni, ya'ni majburiyatlarni bajarishni talab qilishini inobatga olib, jinoiy javobgarlik mazmuni ifodalangan ikkita asosiy shaklni ajratib ko'rsatishni tahlil qilgan. Birinchisi, shaxsning huquq va erkinliklari doirasini ulardan mahrum qilish yoki cheklash nuqtai nazaridan o'zgartirish, bu jazo shaklida amalga oshiriladi, ikkinchisi majburiyatlarni bajarishga majburlash, uni amalga oshirish shakli bo'lgan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va shartli hukm qilish, majburlov choralari qo'llashda ifodalanib, voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligini amalga oshirishning asosiy shakllari majburlov choralari, jazoni o'tashdan shartli ravishda ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish bo'lishi, jinoiy javobgarlikka jalb qilingan shaxslarning eng zaif toifasi bo'lgan voyaga yetmaganlarni javobgarlikka tortish voyaga yetmaganlar huquqlarining buzilishi, ularga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq bo'lmasligi ilmiy asoslantirilgan.

Ishda E.O.Turg'unboyevning "jazodan ozod qilish jinoyat-huquqiy va jinoyat-ijroiya huquqiy normalar yig'indisidan iborat, degan fikrini to'ldirib, jazodan ozod qilish kompleks institut bo'lib, jinoyat-huquqiy, jinoyat-protsessual huquqiy va jinoyat-ijroiya huquqiy normalarni o'z ichiga oladi, degan xulosaga kelingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi paragrafi "*Voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik yoki jazodan ozod qilishning rivojlanish tarixi*" deb nomlangan bo'lib, muallif voyaga yetmaganlarni javobgarlikdan va jazodan ozod qilish institutining paydo bo'lishini turli davlatlar qonunchiligi va milliy qonunchilik asosida o'rganib, turli davrlarda va mamlakatlarda voyaga yetmaganlarni javobgarlik va jazodan ozod qilish institutining **rivojlanishi tarixini** tizimli tahlil qilgan va quyidagi bosqichlarga bo'lib tadqiq etgan:

– qadimgi davr – qadimga Rim huquqida voyaga yetmaganlar alohida subyekt sifatida qaralish boshlangan davr. Voyaga yetmaganni jazolashdan himoyalovchi tizim yaratilgungacha bo'lgan davrda birinchi bor voyaga yetmagan jinoyatchi haqida XII Jadval Qonunida jazosini kechirish prinsipi shakllangan. Unda yozilishicha, voyaga yetmagan qilmishining jinoyat ekanligini anglab

yetmasa va jinoyat oxiriga yetmagan bo'lsa, jazo tayinlanishidan voz kechiladi. Rim huquqida **doli incapax** prinsipi yosh bolalarni jinoiy huquqbuzarlikda aybdor bo'lish uchun zarur bo'lgan qobiliyat va tushunchaning yetishmasligi prezumpsiyasi tufayli javobgarlikdan ozod qilish bo'yicha alohida institut sifatida shakllangan.

– o'rta asrlar davri – islomning keng taraqqiy etishi va shariat qoidalarida voyaga yetmaganlarning alohida institut sifatida ajralib chiqishi bilan bog'liq davr bo'lib, bu "Xidoya"da aqli raso, balog'at yoshidagi odam o'n dirxam pul yoki uning qiymati barobaridagi narsani o'g'irlagani isbotlansa, qo'li kesiladi, deb qayd etilgan. Demak, jinoyat subyekti nafaqat aqli raso shaxs bo'lishi, balki uning ma'lum bir yoshga, ya'ni voyaga yetgan bo'lishi ham shartligi bilan dastlabki voyaga yetmaganlarni javobgarlikka tortishga oid qonunchilikni rivojlanishi bilan bog'lanadi. Islom dinining rivojlanishi bilan musulmon jinoyat huquqida ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni sodir etgan, voyaga yetmagan aybdorlarga nisbatan yengil jazo – ta'zirning 19 darragacha urish, ogohlantirish, jamoat izzasi va hokazo turlari qo'llanilgan. Ammo o'smirlarga nisbatan xad, qasos yoki tovon jazo turlari o'rniga faqatgina ta'zir turidagi jazodan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblangan.

– sovet davri – 1926 va 1959-yildagi jinoyat qonunlarining amal qilishi davri. O'z SSRning 1926-yilda qabul qilingan birinchi jinoyat kodeksida Ikkinchi bo'lim Umumiy qoidalarining 25-bandida "mediko-pedagogik xarakterdagi sotsial mudofaa choralari o'n ikki yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlarga tadbiiq qilinishi lozim", deb belgilangan. Unga ko'ra, sobiq Sovet Ittigoqi MIK va XKSning "Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatkorlik bilan kurash choralari to'g'risida"gi 1935-yil 7-apreldagi qarorida belgilanishicha: o'g'rilik qilishda, zo'rlik qilishda, badanga shikast yetkazish, mayib qilish, o'ldirish yoki o'ldirishga suiqasd qilishda ayblangan voyaga yetmagan bolalar o'n ikki yoshdan boshlab jinoiy jazoning barcha choralari tadbiiq etiladigan qilib jinoiy sudga tortiladilar, deb qat'iy qoida belgilab qo'yilgan. 1959-yilda qabul qilingan Kodeksda voyaga yetmaganlar uchun alohida moddalarda javobgarlik masalasi, jazodan ozod qilish institutlari kiritilgani qayd etilgan. Voyaga yetmaganlarga jazoning kamida 1/3 qismini amalda o'tagach muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilgan. Agar jazodan ozod qilish vaqtiga kelib voyaga yetgan bo'lsa, muddatidan ilgari muayyan shart bilan, agar voyaga yetmagan bo'lsa, muddatidan ilgari hech qanday shartsiz ozod qilingan.

– mustaqillik davri – 1994-yildan O'zbekiston Respublikasining JK qabul qilinishi bilan boshlanib hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Mazkur davr O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentyabrdagi 21-sonli "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi, voyaga yetmaganlar uchun javobgarlikning minimal yoshi 14 yosh etib belgilanishi va voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qo'llanadigan jazolarning liberallasuvi bilan bog'lanadi. 1994-yilgi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini ishlab chiqishda, voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlarini belgilovchi maxsus normalarni bir bo'limda – JK Umumiy qismi oltinchi bo'limida jamlash to'g'risida mutlaq asoslangan qonun hujjati qabul qilindi. Mazkur bo'limga ikki bob (XV va XVI)

kiritildi. Bu o‘z navbatida, eng avvalo, voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligi va jazo masalalari bilan bog‘liq barcha normalarni tizimlash, shuningdek voyaga yetmaganlarning nisbatan fuqaroviy, jismoniy va ma‘naviy kamolga yetish darajasini hisobga olgan holda ularga javobgarlikni yuklash va jazoni qo‘llashning yanada insonparvar prinsiplari va shartlarini umumlashtirish imkonini berdi.

Dissertant voyaga yetmaganlarni javobgarlik va jazodan ozod qilish institutining tarixini o‘rganish davomida voyaga yetmaganlarni javobgarlik va jazodan ozod qilish qo‘llanishi turli vaqtlarda davlatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib, jinoyatchilikning holati va voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatlar ko‘payishi yoki kamayish hisobiga o‘zgarib borgan, degan xulosaga kelgan.

Tadqiqot ishining **“Voyaga yetmagan shaxslarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish turlari va xususiyatlari”** nomli ikkinchi bobida mavzuga oid tadqiqotlar olib borgan mahalliy va xorijiy olimlarning ishlarini o‘rganib voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralarining turlari, ularni qo‘llash bilan bog‘liq amaliyot va qonunchilik tahlil qilingan, voyaga yetmaganlarni jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish, jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish institutlarining ahamiyati, mazkur institutlarni takomillashtirish masalalari o‘rganilgan, xalqaro qonunchilik va olimlarning ilmiy tadqiqotlari umumlashtirilib qonunchilikka takliflar berilgan.

Muallif tomonidan ushbu bobning *“Voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralarini qo‘llash”* nomli birinchi paragrafida qator xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralarini qo‘llash masalalari o‘rganilib, ushbu institutni qo‘llashdagi va tushunishdagi turli fikrlar, qonunchilikdagi mavjud muammolar va yechimlar haqida turli davrlarda olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, jumladan, X.Neylya, S.Burlak, Y.Rogova, T.Kalinina, Q.Abdurasulova, Sh.Niyozova va boshqalarning ilmiy fikrlari asosida JKda majburlov choralarining turlarini kengaytirish, bu orqali voyaga yetmaganning yoshi, jinsi, sodir etgan jinoyatining xususiyati hisobga olinib, majburlov chorasining turini tanlash imkonini beruvchi turlari bilan to‘ldirish zaruratini asoslab bergan va JK ga majburlov choralarining yangi turlarini kiritish bilan bog‘liq taklifni qo‘llab-quvvatlab 85,7% respondent ovoz bergan. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, jami jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar orasida majburlov chorasi tayinlanganlar ulushi 2018-yilda 5,6 %, 2019-yilda 5,3%, 2020-yilda 4,5%, 2021-yilda 2,3%, 2022-yilda 3,1%, 2023-yilda 3,6 %, 2024-yilda 4,7% ni tashkil etganligi o‘rganilgan.

O‘z navbatida, muallif ushbu bobda S.A.Burlakning majburlov chorasi bu – sud tomonidan voyaga yetmagan huquqbuzarlarga nisbatan jinoiy jazo maqsadlariga erishishga qaratilgan jinoiy-huquqiy xarakterdagi choralar tizimi bo‘lib, davlat majburlashi va pedagogik ta‘sir usullarining maqbul kombinatsiyalari yig‘indisi tushuniladi, Y.V.Rogovanning majburlov choralari tarbiyaviy ta‘sirning jazoga muqobili sifatida harakat qiladi, shuningdek ularni jinoyat-huquqiy xarakterdagi boshqa choralar sifatida tasniflashga imkon beradi, T.M. Kalininaning majburlov choralarining jazoga muqobilligi urg‘uni majburlashdan tarbiyaga nisbatan qaratilganligida, O.M. Osadchayaning majburlov choralari jinoyat qonunida nazarda tutilgan, kichik yoki o‘rta og‘irlikdagi

jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan voyaga yetmaganlarga Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan hollarda agar ularni jinoiy javobgarlik yoki jazosiz tuzatish mumkin bo'lsa, qo'llaniladigan davlat majburlov choralari sifatida belgilanishi mumkin, degan fikrlari o'rinli ekanligini va mazkur olimlarning fikrini davom ettirib, o'ziga xos tarzda majburlov choralari mazmunini quyidagicha ifodalangan: majburlov choralari tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, u voyaga yetmagan jinoyatchini tuzatish maqsadiga erishish uchun turli majburlash usullaridan foydalanadi va voyaga yetmaganni jazo bilan emas, balki yengilroq ta'sir choralari orqali uning qayta jinoyat sodir etishini oldini olishga xizmat qiladigan jinoyat sodir etishning dastlabki huquqiy oqibati deyish mumkin. Chunki, ushbu chora-tadbirlar ko'rilganda, o'smirlarga birinchi navbatda ishontirish ta'sir qiladi, uning ongiga qilmishni salbiy baholash va keyingi ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslik va uning keyingi oqibatlariga nisbatan immunitet shakllanadi. Majburlov choralari sudning jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganga nisbatan davlat tomonidan beriladigan tuzalishga imkoniyati, tarbiyaviy ta'sirlar orqali shaxsni to'g'ri hayotga qaytishiga qaratilgan jinoyat sodir etishining huquqiy oqibati.

Majburlov choralarining turlarini tadqiq etishda Qozog'iston Respublikasi jinoyat kodeksining 83-84 moddasi, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 91-92-moddasi, Belorussiya Jinoyat kodeksining 118-moddasi, Moldova Jinoyat kodeksining 54-moddasi, Ozarbayjon Jinoyat kodeksining 89-moddasi, Gruziya Jinoyat kodeksining 90-moddasi Armaniston Jinoyat kodeksining 91-moddalarini asos qilib olingan. Masalan, Rossiya jinoyat qonunchiligiga ko'ra, voyaga yetmaganga nisbatan quyidagi majburlov choralari qo'llanilishi mumkin, xususan, ogohlantirish; ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yoxud ixtisoslashtirilgan davlat organi nazorati ostiga o'tkazish; yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini yuklash; voyaga yetmaganning bo'sh vaqtini cheklash va xulq-atvoriga alohida talablarni belgilash (RF JK 90-m.) hamda yopiq turdagi maxsus ta'lim muassasasiga joylashtirish (RF JK 90-m.). Mazkur majburlov choralarining mazmuni Jinoyat kodeksining 91 va 92-moddalarida yoritilgan.

Muallif Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi ayrim davlatlarning (masalan, RF JK 90-m. 4-q.) jinoyat qonunlarida voyaga yetmagan majburiy chora qo'llanilgan shaxs majburiy chora talablarini muttasil ravishda buzavergan taqdirda maxsus davlat organining taqdimnomasi bilan majburiy chora bekor qilinib, jinoiy javobgarlikka tortish masalasi ko'rib chiqilishi, O'zbekiston Respublikasi JKda bu haqida qoidalar nazarda tutilmaganligi, mazkur institutni tadqiq etgan olimlardan Xibina Neylya Nurmaxanovning fikriga qo'shilgan holda majburlov chorasini jazo o'rniga qo'llash shaxs tomonidan yangi jinoyat sodir etishiga ijobiy to'sqinlik qilishga erishishi mumkin, degan xulosaga kelgan.

Dissertant tomonidan majburlov choralari qo'llash JK 87-moddasida aynan besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar bilan cheklab qo'yilyapti, vaholanki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar ehtiyotsizlik orqasida sodir etilganda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlarni ham qamrab olishi (JK 266-m. 2-3-q.), bu voyaga yetmaganning ahvolini og'irlashtirishi tahlil qilinib, insonparvarlik va voyaga yetmaganlikni hisobga olib JK 87-moddasini yanada takomillashtirish,

og'ir jinoyatni sodir etgan shaxsga mazkur modda 2-qismi asosida jazodan ozod qilishni qo'llash zarurati asoslantirilgan.

JK 87-modda 3-qismida voyaga yetmagan shaxs rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolgan bo'lsa va sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab yetmasa, sud jazo o'rniga majburlov chorasi qo'llash maqsadga muvofiqligi masalasini ko'rib chiqishi shartligi qat'iy belgilangan bo'lib, mazkur qoidani talqin qilishda turli tushunishlar mavjudligi, qonunda aynan jinoyatlar tasnifi bo'yicha dastlabki ikki toifa jinoyatlar uchunmi yoki og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etgan va rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolgan va sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab yetmagan shaxslarga ham tegishli yoki yo'qligini aniqlashtirish, moddaning uchinchi qismi yuqoridagi ikki qismga tushmaydigan, ya'ni jazo tayinlanishi kerak bo'lgan voyaga yetmagan shaxs fiziologik va ruhiy tomondan o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolgan bo'lsa, unga jazo o'rniga majburlov chorasi qo'llash masalasini ko'rib chiqilishi qoidasini aniqlashtirish maqsadida "ancho orqada qolgan" tushunchasini "rivojlanishda nuqsoni bo'lgan" tushunchasi bilan almashtirish qonunni har xil talqin qilishning oldini olishi tahlil qilingan.

Dissertant "*Voyaga yetmaganlarni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish*" nomli ikkinchi paragrafida voyaga yetmaganlarni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish institutining mohiyatini yoritishda xorijiy mamlakatlar tajribasi, milliy va xorijiy olimlarning mazkur institut to'g'risidagi ilmiy izlanishlari o'rganilib, shu asosda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilingan shaxsga nisbatan probatsiya joriy qilish, xususan, ushbu institutning imkoniyatlari orqali jazodan shartli ravishda ozod qilingan voyaga yetmagan mahkumlarga tuzalish yo'liga o'tishga va jamiyatda o'z o'rnini topishga qaratilgan ta'sirli va samarali mexanizm yaratish, shu bilan birga, probatsiya xizmati jazodan shartli ravishda ozod qilingan voyaga yetmagan mahkum tomonidan o'zining xulqi bilan tuzalish yo'liga o'tganligini isbotlasa, sud tomonidan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish bekor qilishi va o'talmagan jazo muddatini o'tash haqida ajrim chiqarishi mumkinligi asoslangan. Bundan tashqari, shartli ozod qilish uchun asoslar masalasi bahsli bo'lib, JKda ko'rsatilgan "halol munosabat" tushunchasining o'zi ham baholovchi bo'lib, bu sudlarga shartli ravishda jazoni qo'llashda xatolarga yo'l qo'yishga sabab bo'lishi tahlil qilingan. Jazoni o'tashdan shartli ozod qilish mavzusida S.Gogel, A.Sichev, D.Sherba, X.Neylya, M.Rustambayev, Y.Rogova, Y.Morozova, P.Malin, O.Kostileva va boshqa olimlarning ilmiy ishlari asosida voyaga yetmaganlarni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan va xorijiy mamlakatlardan Qirg'iziston, Belorussiya, Litva, Rossiya Federatsiya, Bolgariya qonunchiligidagi ilg'or amaliyot o'rganilgan va qonunchilikka takliflar ishlab chiqilgan.

Muallif Pekin qoidalarida "tegishli organlar jazoni ijro etish muassasasidan shartli ravishda ozod qilishni iloji boricha kengroq va iloji boricha tezroq qo'llashlari kerak"ligini e'tirof etilganiga qaramay, yillar kesimida 2018-yilda jami sudlanganlar orasida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo'llanilganlar ulushi 7,9%, 2019-yilda 14,5%, 2020-yilda 18,2%, 2021-yilda 14%, 2022-yilda 19,4%, 2023-yilda 8,4%, 2024-yilda 12,6% ni tashkil

etgani aniqlangan. Tadqiqotchi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi ayrim mamlakatlar JKlarida muddatidan ilgari jazodan shartli ravishda ozod qilingan shaxslar xulqini nazorat qiluvchi maxsus organlar tashkil etilgan bo'lib, muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish vaqtida sud mahkumga muayyan majburiyatlarni yuklashi, jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilingan shaxs sud tomonidan yuklatilgan bu majburiyatlarni bajarmasa yoki jamoat tartibini buzganlik uchun shartli hukm qilinganga ma'muriy jazo qo'llanilgan bo'lsa, shartli ozod qilinganni nazorat qilish yuklatilgan organ taqdimnomasi bilan sud shartli ozod qilishni bekor qilib, jazoni haqiqatda o'tash uchun yuborishi, O'zbekiston JKda esa bunday qoidalar nazarda tutilmaganligi, shartli ravishda ozod qilishning samarasizligi davlat organi tomonidan yuqorida ko'rsatilgan institut qo'llaniladigan shaxslarning xatti-harakatlari ustidan tegishli nazoratning yo'qligi bilan bog'liq bo'lib, bu ham butun jamiyat xavfsizligiga salbiy ta'sir qilishi mumkinligi, uzoq muddat ozodlikdan mahrum bo'lish sharoitida saqlangan shaxs o'zining oldingi mehnat joyidan, hatto ayrimlari oilasidan mahrum bo'lgan, o'z hunarini yoki bilimini esdan chiqargan mahkum jazoni o'tashi mobaynida jamiyatda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lgan bo'lishi, bozor iqtisodiyoti tizimi sharoitida ziddiyatlarning chuqurlashganligi, ishsizlikning yuqoriligi, sudlangan shaxslarning ish topishidagi qiyinchiliklar va hokazolar muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilingan shaxslar oldiga jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi, shaxs esa bu muammolarni o'zi mustaqil ravishda hal qila olmay qolishi, natijada yana jinoyat yo'lga o'tib qolishi, qonunda kimlar yoki qaysi organ ular bilan tarbiyaviy ishlar olib borishi, ishda, o'qishda, turmushdagi muammolarni hal qilishda kim yordam beradi, degan savollar ochiq qolganligi tahlil qilingan.

Qirg'iziston Respublikasi JKga ko'ra sud jazoni o'tashdan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilingan shaxsga jazo muddatining o'talmagan qismi doirasida, lekin uch yildan ortiq bo'lmagan sinov muddatini tayinlab, yuvenal probatsiya organi tomonidan amalga oshiriladigan sinov muddati davomida shartli ravishda muddatidan oldin ozod qilinganlarni nazorat qilish to'g'risida qaror qabul qilishi, mahkumni nazorat qilishda sud sinov muddati davomida unga nazorat talablarini qo'yishi, agar mahkum sinov muddati davomida o'ziga yuklangan belgilangan nazorat talablari va majburiyatlariga rioya qilmasa, sud probatsiya organining taqdimnomasiga asosan shartli ravishda ozod qilishni bekor qilish va unga tayinlangan jazoning qolgan qismini ijro etish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkinligini va bu ijobiy natija berayotganligini tahlil qilgan. E'tiborga molik jihati probatsiya xizmati tomonidan shaxsning yangi jinoyat sodir etishining oldini olish, uning jamiyatga moslashishiga, nazorat talablariga bo'ysunishiga yordam beradigan mas'ul tashkilot va xodimlar faoliyat yuritishi o'rganilgan va mamlakatimizda mazkur institutni joriy etish zarurati asoslantirilgan.

Mazkur bobning *"Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish"* nomli uchinchi paragrafida jazoni yengilrog'i bilan almashtirish tushunchasi, tartibi, va uni qo'llashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Muallif sudlar tomonidan jazoni yengilrog'i bilan almashtirishda voyaga yetmaganlarga nisbatan almashtirilayotgan yengilroq jazoning maksimal chegarasi emas, balki yengilrog'iga almashtirilayotgan jazoning o'talmay qolgan

qismi doirasida tayinlanish holatlari kuzatilishi, bu sudyalar tomonidan to'g'ri amaliyot sifatida tan olinishi, deyarli barcha ko'rib chiqilgan ajrimlarda JK 90-moddasini qo'llashda yengilroq jazo sifatida ozodlikni cheklash jazosiga almashtirilganligini ko'rish mumkinligini sud ajrimlari misolida tahlil qilgan. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jazosi yengilroq'i bilan almashtirish bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, 2020-yilda 49 ta, 2021-yilda 76 ta, 2022-yilda 137 ta, 2023-yilda 143 ta, 2024-yilda 114 tani tashkil etganligi, bu ko'rsatkich juda ham past ekanligi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida mazkur yo'nalishda B.Zdravomislov, A.A.Otajonov, E.O.Turg'unboyevning ilmiy ishlari tahlil qilingan, bir qator sud ajrimlari dissertatsiya ishida muhokama qilingan. Xorijiy mamlakatlardan Belorussiya, Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston, Gruziya mamlakatlari tajribasi asosida JK 90-moddasida ozodlikdan mahrum etish aynan qaysi jazolar bilan almashtirilishi mumkin va uning bir sutkasi yoki bir oyi boshqa jazolarning qancha miqdoriga mos kelishini aniq ko'rsatish, shuningdek axloq tuzatishning qancha muddati boshqa jazolarning aynan qancha miqdoriga to'g'ri kelishini ushbu moddada aniq ko'rsatilishi, JKning ayrim moddalarida qaysi jazo boshqa jazoning qancha miqdoriga to'g'ri kelishi ko'rsatilgan bo'lsa-da, ayrim jazolarning boshqa jazolarning qancha muddatiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmaganligi, Oliy Sud plenumi qarorida bu qoida aniq tizimli tartibga solinmaganligi tahlil etilgan. JK 90-modda 4-qismida ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoning o'talmagan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosining o'talmagan qismi muddatiga tayinlanadi, deyilgan. Mazkur qismda ikki turdagi jazoni ahloq tuzatish ishlari bilan almashtirish haqida gap boradi. JK 81-moddasiga ko'ra voyaga yetmaganlarga 5 turdagi asosiy jazolar tayinlanadi. Qonunda qaysi jazoni o'zidan yengiliga almashtirganda miqdorlar masalasini qanday hal qilish haqida aniq yozilishi mazkur moddaning takomillashuviga xizmat qiladi. Masalan, ozodlikdan mahrum qilishni jarima jazosiga almashtirganda ozodlikdan mahrum qilishning qancha miqdori jarimaning qancha miqdoriga to'g'ri kelishi belgilanishi asoslantirilgan.

